

**Moydinova Shohida Ismailjanovna**

Andijon davlat chet tillar instituti

Ingliz tili o ‘qitishning integrallasshgan kursi kafedrasi katta o ‘qituvchisi

## **CHEТ TIL O ‘QITISHDA O‘QISH TURLARINING TASNIFI**

**Kalit so‘zlar:** o‘qish turlari, ko‘z yogurtirib o‘qish, tanishish maqsadida o‘qish, ta’limiy o‘qish, izlanib o‘qish, sinchiklab o‘qish, analistik va sintetik o‘qish, individual, frontal, sinfda, uyda o‘qish.

“O‘qish” (reading) tushunchasini tadqiqotchilar turlicha ta’riflashganini ko‘rishimiz mumkin (I.M.Berman, L.P.Doblaev, I.A.Zimnyaya, Z.I.Klichnikova va boshqalar)[3]. Ushbu olimlar o‘qishni tavsiflovchi jihatlarni ko‘rsatib o‘tganlar. Ular o‘qishni odamlarning kundalik kommunikativ, ijtimoiy va mehnat faoliyatida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Turli tipdagи o‘quv yurtlaridagi chet til o‘qitishning maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda o‘qish turlarini tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ko‘plab metodik adabiyotlarni tahlil qilganimizda, chet tilidagi o‘qish turlari quyidagi mezonzarga ko‘ra tasniflanishini ko‘rib chiqdik. Unga ko‘ra: ona tilining ishtirok etishiga qarab tarjimali va tarjimasiz o‘qish; analiz va sintez elementlarning nisbatiga ko‘ra — analistik va sintetik o‘qish; o‘tkazilish joyiga qarab sinfda, auditoriyada, uyda o‘qish; majburiylik darajasiga ko‘ra, majburiy o‘qish va yordamchi o‘qish; tayyorgarlik darajasiga ko‘ra, qisman tayyorlangan, to‘la tayyorlangan va tayyorgarliksiz o‘qish turlari borligi aytib o‘tiladi.

Bundan tashqari ko‘z yogurtirib o‘qish, tanishish maqsadida o‘qish, ta’limiy o‘qish, izlanib o‘qish, sinchiklab o‘qish turlari ham mavjud.

Talabalar kasbiy matnlarni ko‘zlagan maqsadlaridan kelib chiqib analistik, sintetik, tarjimali, tarjimasiz o‘qish turlaridan foydalanib o‘qishlari mumkin. Masalan, ilmiy maqola yoki kitobning mavzusi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun ko‘z yogurtirib o‘qish turidan foydalaniladi. Bunday ma’lumotga ega bo‘lish uchun sarlavha yoki kichik sarlavhalarni, ba’zi xatboshi yoki gaplarni tez o‘qib chiqish yetarli hisoblanadi.

Tanushuv o‘qish turida esa talaba asosiy e’tiborini o‘zi izlayotgan ma’lumotga qaratadi va matnning aniq mazmunini tushunishga harakat qiladi. Shu sababli bu o‘qish turini matn mazmunini umumiyl tushunib o‘qish deb yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tanishishuv o‘qish turi tez maromda ravon o‘qish turi hisoblanadi. Ta’limiy o‘qishda asosiy maqsad nafaqat matndagi ma’lumotni tezda qabul qilish, balki uni chuqurroq tahlil qilishdir. Bu o‘qish usuli talabaning fikrini rivojlantirishga, matnning asosiy g‘oyalarni aniqlashga va matnni tanqidiy yondashuv bilan o‘rganishga qaratilgan. Bu jarayonda talaba matnni bir necha marta o‘qib chiqishi, muhim fikrlarni ajratib olish va tahlil qilish orqali tushunishni chuqurlashtiradi[1].

Analistik, sintetik, ko‘z yogurtirib o‘qish, tanishuv va sinchiklab o‘qish turlari oliy ta’lim mussasalarida ustuvorlikka ega. O‘rtta umumta’lim maktablarida esa o‘quvchilarning asosan analistik va sintetik o‘qish turlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi. Nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalariga analistik va sintetik o‘qish turlaridan tashqari boshqa o‘qish turlari yuzasidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun chet til o‘qituvchisi darsni metodik to‘g‘ri tashkil qilishi juda muhim.

Sinchiklab o‘qishda talaba kasbiy matndagi o‘ziga kerakli zarur ma’lumotlarni qidirib topish maqsadida sinchiklab o‘qiydi. Chunki talaba izlayotgan ma’lumoti haqida ozginagina tasavvurga ega bo‘lishi yoki umuman xech narsa bilmasligi mumkin. Shu sabali sinchiklab o‘qish kasbiy matnlardan axborot olishda ustuvorlikka ega.

O‘qish turlari ichida eng kam ma’lumot ko‘z yogurtirib o‘qishda olinadi. Tanlangan matnda o‘ziga kerakli axborot bor yoki yo‘qligini bilish maqsadida tezda o‘qish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Bunday ko‘nikmalarни rivojlantirish uchun chet til o‘qituvchisi matnni o‘qishdan avval topshiriqlar yoki savollar berib, talabani matndagi zarur axborotni qidirib topishga yo‘llaydi.

Analitik o‘qishda talaba matnni chuqurroq tahlil qilib, so‘z iboralarini va qiyin abzatslarni o‘rganib, ma’lumot olishga harakat qiladi. Sintetik o‘qishda esa matnni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qib, tahlil qilmasdan ma’lumot olishga intiladi. Bu usulning har biri matnni tushunish va ma’lumot olishda turli yondashuvlarni ifodalaydi.

S.K.Folomkinaning ta’kidlashicha, o‘qish insonning kommunikativ va ijtimoiy faoliyati sohasiga kiradi. O‘qish bo‘lajak mutaxassisga zarur ma’lumot manbalariga kirish imkonini beradi. Shuningdek, u o‘quvchilarning kognitiv ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositalaridan biridir.

Nofilologik fakultet talabalarining o‘qish ko‘nikmalarini egallashga bo‘lgan qiziqishlari kelajakdagи o‘zлari tanlagan kasblari bilan bog‘liq. Shu sababli matn tanlashda talabaning kasbiy yo‘nalishini, kasbiga nisbatan qiziqish uyg‘otishini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilganimizda o‘qish turlarini tasniflahda turlicha mezonlar asosida tasniflanganini ko‘rib chiqdik. Xorijiy metodist olimlar o‘qishning 30 dan ortiq turlarini taqdim qilganlar. Turli adabiyotlarni tahlil qilish asosida o‘qish turlari aniqlanib, tasniflandi. Bular – ovoz ishtirokiga ko‘ra; mantiqiy amallardan foydalanishga ko‘ra; matn mazmunini anglab olish darajasiga ko‘ra; tillar ishtirokiga ko‘ra; ma’lumot olish darajasiga ko‘ra; tarjimaga ko‘ra; o‘qish joyiga ko‘ra; shakliga ko‘ra; tayyorlarlik darajasiga ko‘ra; majburiylikka ko‘ra; ona tili ishtirokiga ko‘ra; o‘qishdan ko‘zlangan maqsadga ko‘ra; o‘quv vositalariga ko‘ra; o‘quv materialinini o‘rganish darajasiga ko‘ra mezonlarga asosan o‘qish turlari tasniflandi.

I.A.Bredixina o‘qishning turlarini farqlashda psixologik omillar, tashkil qilish shakli, o‘rganish darajasi va maqsadi kabi mezonlarni asos qilib oladi:

- 1) psixologik munosabat asosida (analitik va sintetik o‘qish);
- 2) ona tilining ishtirokiga ko‘ra (tarjimali / tarjimasiz);
- 3) talabalarga beriladigan topshiriqlar darajasiga ko‘ra (tayyorlangan/ tayyorlanmagan; lug‘at bilan va lug‘atsiz o‘qish);
- 4) tashkil etish shakliga ko‘ra (individual, frontal, sinfda / uyda o‘qish);
- 5) material miqdori va o‘rganish darajasiga ko‘ra (intensiv / ekstensiv);
- 6) maqsadi va xarakteriga ko‘ra (o‘rganuv, qidiruv, tanishuv, ko‘z yogurtirib o‘qish)[4].

Kitobxonlarning amaliy ehtiyojlari hikoya, ilmiy maqola yoki kitoblarni ko'rib chiqish, mazmuni bilan tanishish, qiziqarli ma'lumotlarni qidirishga asoslangan. S.K. Folomkina o'rganish maqsadiga qarab, o'rganuv, tanishuv, ko'z yogurtirib o'qish va qidiruv o'qish turlarini farqlaydi [6].

Z.I.Klichnikova o'qish shakliga ko'ra - ovoz chiqarib o'qish, ovoz chiqarmay o'qish turlarini, mantiqiy operatsiyalardan foydalanishga ko'ra - sintetik, analitik o'qish turlarini aniqlagan. I.A.Gruzinskaya sintetik, analitik o'qish turlarini, S.F.Shatilov, C.Nuttall, Grellet lar intensiv va ekstensiv o'qish turlarini o'z ilmiy asarlarida keltirib o'tganlar. Penny Ur, C.Nuttal, F.Grellet, S.K.Folomkina lar o'rganuv, tanishuv, ko'z yogurtirib o'qish, qidiruv kabi o'qish turlarini tadqiq qilganlar.

Nofilologik oliygoh talabalari bo'lajak kasblari doirasidagi ehtiyoji va oldida qo'ygan vazifagasiga qarab, chet tildagi o'qishning ma'lum bir turlaridan birini tanlaydi. Chet til o'qituvchisi bu vaziyatda talabaga kerakli maslahat berishi va uning matndan tez, oson ma'lumot olishiga yordam berishi mumkin.

Kasbiy faoliyatning xususiyatiga qarab, kasbga yo'naltirilgan o'qishning umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Demak, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida o'qishdan darsga tayyorgarlik ko'rishda, o'quvchilarining yozma ishlarini tekshirishda, muhokamalar tashkil etish va o'tkazishda, badiiy asarlarni tahlil qilishda o'zining kasbiy tayyorgarligini oshirish kabi ishlarda foydalanishi mumkin. Boshqa soha vakillarida ham o'ziga xos kasbiy faoliyatlarni bajarishlari mumkin[2]. Masalan, shifokor bu sohadagi eng so'nggi yangiliklardan o'qib, o'rganib bemorlarni davolashda, turli jarrohlik amaliyotlarini bajarishda o'qigan ma'lumotlaridan foydalanishi o'sha shifokorning kasbiy yutug'i bo'lishi bilan birga tibbiyotning rivoji ham hisoblanadi.

Integratsiyalashgan o'qish turida mutaxassis o'qish orqali ma'lumotni qayta ishlaydi va o'qigandan so'ng o'z maqsadiga erishish uchun o'qilgan material mavzusiga tegishli qo'shimcha manbalarni jalg qiladi va shu bilan bu masala bo'yicha o'z tushunchasini shakllantiradi.

Filologik o'qish konteksti chuqr idrok etish va tushunish, shuningdek, muallif o'z asarida foydalanadigan turli vositalarni bilishga asoslanadi.

Tahriri o'qish muharrirning matnni tahrir qilishga qaratilgan faoliyat bilan bog'liq[5]. Yuqorida keltirilgan o'qish turlarini tahlil qilar ekanmiz, har bir soha mutaxassis o'qishdan ko'zlagan maqsadiga, vazifasiga qarab o'qish turlarini tanlashi mumkin.

Nofilologik oliy ta'lim muassasasi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetentsiyasini rivojlantirish ularning chet tilidan bilim darajasi, qiziqishi, sohaviy axborotga bo'lgan ehtiyoji kabi omillarni hisobga olgan holda o'qish turlarini tanlashiga ham bog'liq.

O'qish uchun tanlanadigan har qanday matn mazmuni ta'limiy, amaliy, rivojlantiruvchi, kasbiy maqsadlarga mos bo'lishi maqsadga muvofiq. Kasbiy matnlarni tanlashda ham ushu mezonlarga amal qilinadi. Har bir soha uchun tanlanayotgan matn mazmuni ko'zlangan maqsadga va kasbiy ehtiyojga javob beradigan bo'lishi kerak.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимов Ф.Ш., Фахрутдинова Р.А. Этапы развития языковых навыков в условиях цифровизации образовательного пространства вуза // Международный научный журнал "Инновационная наука", №1-2, 2023.

2. Агапитова Т.Г. Обучение информативному чтению в условиях формирования профессиональной культуры будущего учителя иностранного языка: Дисс....анд. пед. наук. — Пермь, 2000.с. 11
3. Берман И.М. Методика обучения английскому языку в неязыковых вузах. Высшая школа, 1970.- 232 с./Доблаев Л.П. Смысловая структура учебного текста и проблемы его понимания / Л.П. Доблаев. — М. : Педагогика, 1982. — 176 с./Зимняя, И.А. Предметный анализ текста как продукта говорения // Смысловое восприятие речевого сообщения / Отв. ред. Т.М. Дридзе и А.А. Леонтьев. - М., 1976. - с. 57 - 64.//
- Клычникова З. И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке: -М.: Просвещение, 1983.-207с.
- 4.Бредихина И.А. Методика преподавания иностранных языков, Екатеринбург, 2018 стр.72.
5. Константинова Л.А. Стилистика и литературное редактирование. — Тула, 2007.
6. Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе. — М., Высшая школа, 1987. – 205 с.